

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI**

KURS ISHI

**MAVZU: ARISTOTELNING BORLIQ
HAQIDAGI TA'LIMOTINING SHARQQA
TARQALISHI**

Bajardi: “Falsafa tarixi” ta’lim yo‘nalishi magistranti
Allanazarov Muxiddin

Ilmiy rahbar: “Falsafa” kafedrası dotsenti,
f.f.n., Po’latova D. A.

Ushbu kurs ishi Qadimgi yunon olimi Aristotelning borliq haqidagi qarashlariga bag’ishlangan bo’lib, unda nafaqat uning borliq haqidagi qarashlari, balki uning dunyoqarashi har tomonlama ochib berilgan. Magistrant Aristotel falsafiy qarashlariga chuqur kirib bora olgan va Sharqqa ta’sirini to’liq yoritib bera olgan.

TOSHKENT - 2013

M U N D A R I J A

Kirish.....	3-5
I bob. Aristotel ta'limotining jahon falsafasi taraqqiyotida tutgan o'rni.....	6-22
1.1. Aristotelning hayoti, ijodi va falsafa tarixida tutgan o'rni.....	6-11
1.2. Aristotelning borliq haqidagi ta'limoti.....	12-22
II bob. Aristotelning borliq haqidagi ta'limotining sharqqa tarqalishi.....	23-30
2.1. Ibn Rushd va Abu Rayhon Beruniyning ontologik dunyoqarashida Arastuning o'rni. Ibn Rushd – Averroes.....	23-26
2.2. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlariga Arastuning ta'siri.....	27-30
Xulosa.....	34-32
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	33-35

K I R I Sh

Muammoning dolzarbli. Aristotel qadimgi buyuk yunon faylasufi, qomuschi, o'z davrida mavjud barcha fanlar bo'yicha qalam tebratgan allomadir. Uning yashab o'tganiga ikki ming yildan ortiq vaqt bo'lganiga qaramay, hamon o'z ta'limoti bilan jahon ahli orasida yashab kelmoqda. Aristotel dunyoqarashi iz qoldirmagan biron-bir fan sohasini ko'rsatish qiyin.

Alloma haqida bizning fikrimiz qanday bo'lmasin, uning aql-zakovatini, jasoratini tan olishimiz kerak. Aristotel yashab, ijod qilgan davrda Yunoniston na faqat Yevropada, balki butun jahonda iqtisodi, madaniyati, fani rivojlangan davlat sifatida tanilgan edi.

Sharqda Aristotelni "muallimi avval" deb atashgan. Uning ta'limoti o'nlab asrlar davomida Bog'dod va Kordovada, Misr va Buyuk Britaniyada ilm-fan, ayniqsa falsafa va mantiq ilmining gurkirab o'sishiga katta ta'sir ko'rsatib kelgan. Aristotelning buyukligi yana shundaki, u o'z ustozlari Platon singari Afinada o'z maktabini tashkil etdi. Bu maktabda yuzdan ortiq shogirdlar tahsil olgan. Ular keyinchalik o'z ustozlari bilan birga tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy ilmlarni rivojlantirdilar.

Falsafa tarixini o'rganish falsafaning ijtimoiy ong shakllari o'rtasidagi o'rni aniqlash va u jamiyat moddiy hayotining ijtimoiy amaliyotga bog'liqligi, nisbiy mustaqilligi, shuningdek, ichki taraqqiyotida, ichki mantiqqa egaligini aniqlashni taqozo etadi. O'tmish falsafiy ta'limotlar tarixi bosib o'tilgan bosqich sifatida qaralib, uni o'rganish hozirgi davrda katta ahamiyat kasb etmoqda. Yurtboshimiz «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga javob berar ekan, quyidagilarni ko'rsatib o'tgan edi: «Dunyo tan olgan ko'p ulug' faylasuflarning asarlari hanuzgacha o'zbek tilida nashr etilmaganligi tufayli aksariyat ziyolilar, xususan yoshlarimiz ularning g'oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nisshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o'zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo'lmasa? ... Mana, misol uchun Freydning nazariy qarashlari,

pragmatizm va ekzistensializm g'oyalari, Berdyaev va boshqalarning falsafasini o'rgansak, foydadan xoli bo'lmaydi... Biz ko'p masalalarda g'arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraqlisini e'tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur"¹. Darhaqiqat, buyuk mutafakkirlarning falsafiy qarashlarini o'rganish doimo dolzarb masala bo'lib qoladi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Antik davr falsafasining yirik namoyandasi, yunon faylasufi Aristotelning ijodi falsafiy, ijtimoiy, tarixiy adabiyotlarda, jumladan, falsafa tarixida ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'ziga xos uslubda, o'z zamonasiga mos ravishda atroflicha tahlil qilib berilgan.

Shuningdek, Aristotelning ijodini har tomonlama yorituvchi V.F.Asmus², A.S.Bogomolov³, A.F.Losev⁴, V.P.Zubov⁵ va boshqa rossiyalik tadqiqotchilar ishlarini, O'zbekistonda S.A.Yo'ldoshevning⁶ risolalarini, maqolalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi, bilish nazariyasi, borliq haqidagi ta'limoti, ijtimoiy va siyosiy merosi aks etgan.

Biz ham kurs ishimizda Aristotelning borliq haqidagi ta'limotini, insonga bo'lgan munosabatini va uning sharqqa tasirini imkoniyatimiz darajasida atroflicha yoritishga harakat qildik.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Ishning **maqsadi** Aristotelning borliq haqidagi ta'limotini, insonga bo'lgan munosabatini va uning sharqqa tasirini tahlil qilib, ochib berishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqadigan **vazifalar** quyidagilardan iborat:

- Aristotelning hayot-faoliyatini o'rganish;
- uning falsafiy qarashlarining shakllanishiga turtki bo'lgan g'oyaviy-nazariy omillarni ko'rsatish;

¹ Каримов И.А. Донишманд халкимизнинг мустахкам иродалилигига ишонаман // Фидокор. 2000. 8 июн.

² Асмус В.Ф. Античная философия. –М.: Мысль, 2005.

³ Богомолов А.С. Античная философия. –М.: Наука, 1996.

⁴ Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. –М.: Политиздат, 1991

⁵ Zubov V.P. Аристотель. –М., 1963

⁶ Йўлдошев С. Арасту. –Тошкент: Ўқитувчи, 1998.

- Aristotelning borliq haqidagi ta'limotini va uning sharqqa tasirini tahlil qilish;
- va nihoyat, qiyosiy o'rganib, tahlil qilishdan iborat.

Ishning nazariy va amaliy asoslari. Tadqiqotning nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Aristotelning ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy, siyosiy asarlari, rossiyalik va g'arb mutafakkirlarining Aristotel ijodiga oid tadqiqotlari, turli yillarda nashr etilgan ilmiy-monografik risolalari, asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning **uslubiy** asoslarini xolislik, tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillar tashkil etadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning **nazariy** ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ijtimoiy-falsafiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, falsafa tarixiga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning **amaliy** ahamiyati esa, hozirgi kunda turli ta'limotlarni o'rganib, atroflicha tahlil qilib, zamonamiz talabiga binoan to'g'ri xulosa chiqarish va ulardan yoshlarimizni ilmiy-ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirishda, barkamol inson qilib yetishtirishda foydalanishda namoyon bo'ladi.

Kurs ishining strukturasi. Ish kirish, ikki bob, to'rt band, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 35 betni tashkil qiladi.

I – Bob. Aristotel ta'limotining jahon falsafasi taraqqiyotida tutgan o'rni

1.1. Aristotelning hayoti, ijodi va falsafa tarixida tutgan o'rni

Pelopones jangi Qadimgi Yunonistondagi shahar — davlatlarning chuqur inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Yunon shaharlari o'rtasida to'xtovsiz, uzoq davom etgan o'zaro urushlar turli tabaqalardan iborat jamiyatda boylar bilan kambag'allar, oligarxlar bilan oddiy fuqarolar o'rtasidagi ziddiyatlarning yanada keskinlashuviga olib keldi.

O'zining harbiy yurishlari bilan jahonga dong'i kstgan Aleksandr Makedonskiy o'z davrida qudratli hisoblangan Fors davlati ustidan g'alaba qozongach, janubi-g'arbiy Osiyoning ko'pgina qismini zabt etib, Yevropa va Osiyo xalqlarini birlashtirgan buyuk davlatni barpo etadi.

Ana shunday bir davrda ilm-fanning rivojlanishiga o'zining bebaho hissasini qo'shgan buyuk mutafakkirlardan biri Aristotel (milodimizdan avval 384—322) edi. Aristotel antik davrdagi yunon falsafasi va ilm-fani taraqqiyotida yangi davrni yaratdi. Aristotel quldorlar sinfining o'rtamiyona vakili bo'lgani uchun demokratiya tarafdori edi.

Aristotel Egey dengizi bo'yidagi Frakiyaning Stagira shahrida tug'ilgan. Uning otasi Makedoniya podshosi Aminta II ning saroy tabibi edi. U 15 yoshlik chog'ida ota-onasidan judo bo'ladi. Aristotel har tomonlama o'qimishli homiy qo'l ostida ta'lim-tarbiya ko'radi. O'n yetti yoshida ustoz va do'sti Platon tashkil etgan Akademiyaga o'qishga kirib, yigirma yil davomida, yani Platon vafotigacha shu dargohda ta'lim oladi. Manbalarda keltirilishicha, Aristotel Platonning do'stlari va shogirdlari orasida aql-zakovati, ilmga bo'lgan qiziqishi bilan alohida ajralib turar edi. Aristotel juda bilimdon bo'lganligi sababli ustoz Platon bilan turli masalalarda bahslashib turar, ayrim hollarda unga e'tiroz ham bildirar edi. Haqiqatparvar mutafakkir o'z ustozining falsafa borasida yo'l qo'ygan xatolariga befarq qaray olmagan.

Aristotel Makedoniya podshosi Filippning iltimosiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil davomida ta'lim-tarbiya berib boradi. Hokimiyatni boshqarish

16 yoshli Aleksandrga qolgach, davlat ishlari uning ta'lim olishiga imkon bermaydi. Otasidan qolgan qudratli davlatni kengaytirish maqsadida Aleksandr Makedonskiy Sharq va G'arbga yurishlar uyushtirib, jahonning ko'pgina qismini zabt etishga muvaffaq bo'ladi. Ana shunday g'olibona yurishlarida o'zining eng yaqin maslahatchisi sifatida Aristotelni ham birga olib yuradi. O'n ikki yil safardan keyin Aristotel 334 yili ellik yoshida Afinaga qaytib keladi.

Tarixiy adabiyotlar va ilmiy manbalarda yozilishicha, Aristotel Aleksandr Makedonskiy bilan yurishlar chog'ida juda katta ilmiy ishlar uchun ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullangan. Ana shu materiallari asosida o'zining asosiy asarlarini umrining so'nggi yillarida yozgan. Aristotel Afinaga ulug'vor Makedoniya saroy ahillari bilan do'stona munosabatda bo'lgan, hurmatli va obro'li kishi sifatida qaytib kelgandi. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Makedoniya podshosi Aleksandr Aristotelni tabiiy-ilmiy tadqiqot ishlarini keng olib borishi uchun moddiy jihatdan ta'minlab turgan. Ana shu imkoniyatlar tufayli Aristotel milodimizdan avvalgi 335 yili Afinada o'zining xususiy maktabi — Likkeyni ochishga erishadi. Maktab Appolon Likkey ibodatxonasi yaqinida ochilgani uchun shunday nomlangan. Aristotel bu maktab bog'ida o'z shogirdlari bilan sayr qilib, ma'ruza o'qir edi. Keyinchalik uning sayr qilib ma'ruza tinglovchi shogirdlarini perepatetiklar (ya'ni sayr qilib yuruvchilar) deb atadilar. Aristotel tashkil etgan maktab juda katta kutubxoiaga ham ega bo'lgan ekan.

Aleksandr Makedonskiy hayotiniig so'nggi yillarida Aristotelning Afina zodagonlari bilan munosabati ancha yomonlashadi. Aleksandr Makedonskiyning o'limidan keyin Aristotelning Afinada qolishi juda xavfli bo'lib qoladi. Chunki o'sha davrda Yunonistonda, xususan, Afinada Aleksandr Makedonskiy hukmronligiga qarshi qattiq kurash boshlangan edi. Shuning uchun Aristotel milodimizdan avvalgi 323 yili ta'qiblardan qochib, Afinani tark etadi va Evbey orolidagi Xalkidaga ko'chib keladi. Oradan bir yil o'tgach, 322 yili o'sha yerda vafot etadi⁷.

⁷ Грб философи. –Тошкент: Шарк, 2004. –Б. 123.

Aristotel vafotidan ilgari Afinadagi o'z kutubxonasini shogirdi Teofrastga qoldirganligi hamda o'ziga yaqin bo'lgan kishilarga, hatto o'z qullariga ham mehribonlik qilganligi uning vasiyatida o'z ifodasini topgan.

Aristotel faqat ulkan faylasufgina emas, balki ko'pgina fan sohalarida qalam tebratgan zabardast mutafakkir edi. U mantiq, psixologiya, falsafa, etika, ritorika, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas asarlar yozib qoldirgan. Aristotel ilmiy tadqiqotlar olib borgan, tekshirilgai barcha fan sohaları borliqni o'rganishga qaratilgan.

U mantiqqa oid barcha asarlarinn «Organon» nomli yirik to'plamiga kiritgan. Aristotelning fikricha, mantiq o'ziga xos bilim quroli bo'lib, falsafaning muqaddimasi hisoblanadi.

Aristotel «Fizika», «Metafizika», «Jon to'g'risida», «Kategoriya», «Analitika», «Topika», «Organon» singari asarlarida uning samarali ijodi o'zining to'la ifodasini topgan. Aristotelning tabiiy-ilmiy qarashlari uning «Fizika», «Osmon haqida», «Meteorologiya», «Hayvonlarning kelib chiqishi», «Metafizika», «Etika» kitoblarida bayon qilingandir⁸.

Aristotel barcha fanlarni ikki qismga — nazariy va amaliy fanlarga ajratadi. Uning fikricha, nazariy fanlarni o'rganish faqat ularni bilishga qaratilgan. Amaliy fanlar esa insonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga, biror foydali ishni amalga oshirishga qaratilgan. Nazariy fanlarni Aristotel uch qismga: Birinchi falsafa (metafizika), matematika va fizikaga bo'ladi.

Agar «Metafizika», ya'ni birinchi falsafa borliqning o'zgarmas asosini o'rgansa, matematika jismlarning mavhum, mikdorny va fazoviy xossalarini, fizika jismlarning tabiatdagi turli holatlari va aniq «materiyalar»ni o'rganadi.

Aristotelning borliqni turli fanlar yordamida o'rganishini olimlar yuqori baholganlar. Shunday qilib, Aristotel falsafasining xususiyati materializm bilan idealizm o'rtasida ikkilanishdan iboratdir. U o'zining ilk falsafiy qarashlarida ustozi Platonga ergashgan bo'lsa, keyinchalik uning falsafasini tanqid qilib, o'zining mustaqil ta'limotini yaratdi. Aristotelning fikricha, Platonning «g'oyalar

⁸ Йўлдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси. —Тошкент: Шарқ, 2002. —Б. 72.

nazariyasi» jiddiy asosga ega emas. Unga ko'ra, g'oyalar birlamchi bo'lib, moddiy dunyo, jism va hodisalar ularning nushasidir. Aristotel Platonning bu ta'limotini rad etib, g'oyalarning o'zi jismning oddiy nushasi va o'z mazmuni jihatidan uning bu jismlardan farqi yo'q, deb ta'kidlaydi. «Umumiy g'oya» o'z nushasi sifatida jism va hodisalarni yaratgan g'oya-jismning mohiyatidan iborat. Platonning bu g'oyasini Aristotel rad ztdi. Agar «g'oya» jism va hodisalarning mohiyati bo'lsa, u vaqtda bu mohiyat shu jism va hodisalarda gavdalanishi va ifoda etilishi lozim edi. Vaholanki, Platon jism va hodisalar o'z mohiyatidan (g'oyadan) butunlay ajralgan deb ta'kidlaydi Aristotel. Shuning uchun Platon narsa va hodisalarni o'rganish ularning mohiyatini bilishga yordam bermaydi, moddiy narsa va hodisalarni bilishning hojati yo'q. Shu sababli sezgi a'zolarimiz xizmatidan voz kechish kerak, degan fikrni ilgari suradi.

Aristotel Platonda g'oya bilan moddiy predmetlar, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik o'rtasida bog'lanish butunlay yo'q ekanini ta'kidlaydi. Shunday qilib, Platonning fikricha, g'oyalar abadiy, birlamchi, harakatsiz, o'zgarmas, ularning nushasi hisoblanadi. Moddiy narsalar va hodisalar harakatda, o'zgarishda va o'tkinchi xarakterga egadir. Platonning bu g'ayri-ilmiy ta'limoti, Aristotelning fikricha, asossiz va qarama-qarshi qutbga ega. Modomiki, predmet va hodisalar «g'oya»larning mahsuli, nushasi ekan, deb ta'kidlaydi Aristotel, nega «g'oyalar» harakatsiz, o'zgarmas, mangu, ularning nushasi, mahsuli esa harakatda, o'zgarishda va o'tkinchi xarakterga ega bo'lishi kerak? Aristotel bu yerda Platon ta'limotida ta'kidlangan predmet va hodisalar bilan «g'oyalar dunyosi» o'rtasida sababiy bog'lanish yo'q ekanini ochib tashlaydi. Aristotel Platon singari tushunchalar orqali borliqning muhim, tub va o'zgarmas xossasini bilish mumkin, deydi.

Lekin Aristotel Platonning tushunchalar orqasida konkret moddiy narsalar yotishini inkor etishini tanqid qilib, tushunchalar orqasida konkret narsalar yotadi, deb ta'kidlaydi. Masalan, Platon «o'rmon» tushunchasi ortida konkret daraxtlar yotishini ko'ra olmaydi. Platon tushunchalarni hissiy borliqqa qarama-qarshi qilib qo'yadi. Aristotelning fikricha, «g'oyalar dunyosi» ta'limotining yuzaga kelishida

Geraklitning hissiy narsalarning to'xtovsiz o'zgarishi ta'limoti asos bo'ldi. Shuning uchun Aristotel Platon, Geraklit ta'limotlariga qarama-qarshi bilimning manbai hisoblanmish o'zgarmas abadiy narsalarni tadqiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Aristotel «Metafizika» asarida Platonning g'oyalar haqidagi ta'limotini tanqid qilib, uning g'oyalari olamdagi hissiy narsalardan ajralgan, o'ziga mustaqil g'oyalar ekanini isbotladi va shu asarining boshqa qismlarida Platonning mustaqil g'oyasiga qarshi o'zining hissiy narsalar tushunchasiga munosabati to'g'risidagi ta'limotini qarama-qarshi qo'ydi.

Aristotel va uning shogirdlari butun aql-zakovatlarini falsafiy muammolarni yechishga qaratganlar. Aristotel zukko olim bo'lish bilan birga haqiqat va adolatni hamma narsadan ustun qo'ygan. O'z ustози Platonning “g'oyalar dunyosi” to'g'risidagi ta'limotini tanqid qila turib, shunday deydi: “Platon qanchalik menga ustoz, eng yaqin do'st bo'lishidan qat'iy nazar, haqiqat undan afzal”⁹.

Aristotel yozib qoldirgan asarlari mazmun jihatdan to'rt guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga mantiqqa oid asarlari kirgan bo'lib, u “Organon” deb ataladi, ikkinchi guruhga falsafaga oid asarlari kiradi. Uchinchi guruhga tabiatshunoslikka bag'ishlangan asarlari, ya'ni “Fizika”, “Koinot haqida”, “Xotira haqida”, “Nafas haqida”, to'rtinchi guruhga tarix, iqtisod, siyosat, axloq, nafosatga oid asarlari, jumladan “Siyosat”, “Nikomax axloqi”, “Evdem axloqi”, “Katta axloq”, “Notiqlik san'ati” kabi asarlari kiradi.

Shunday qilib bandga xulosa qilamiz. O'z davrida va o'zidan keyingi davrlarda mavjud bo'lgan turli falsafiy yo'nalish, maktab va oqimlarning vakillari Aristotel ta'limotini o'zlaricha talqin etishgan, o'z qarashlari ta'limotlarini Aristotel ta'limotiga suyangan holda ilgari surishgan va undan tayanch, qurol sifatida foydalanishgan.

Antik davr faylasuflarining ta'limotlari Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlarining sa'y-harakatlari tufayli ikkinchi hayotini o'z Vatani-Yunonistonda topdi. Shakshubhasiz Aristotel merosini o'rganishda va targ'ib qilishda Markaziy Osiyolik

⁹ Йўлдошев С. Арасту. –Тошкент: Ўқитувчи, 1998. –Б. 4.

mutafakkirlarning ham hissalarini benihoya katta. Shu sababli ham xususan, Abu Nasr Forobiy Sharqda “Muallimi soniy” (ikkinchi muallim) degan sharaflilik unvonga muvaffaq bo‘lgan.

1.2 Aristotelning borliq haqidagi ta'limoti

Mavjudlikning fundamental shakllari haqidagi falsafiy ta'limotlar, jumladan, g'oyalar haqidagi hamda substansiya va xossalr haqidagi ta'limotlar esa epistemologiya (bilish nazariyasi)ni tashkil qiladi.

Aristotel uchun bilish jarayonidagi birinchi qadam hislarimizning alohida narsalarni idrok etishi hisoblanadi. Keyingi qadam ahamiyatli va umumiy tasodifiydan mavhumlashtirish yo'li bilan tushunib yetishdan iborat bo'ladi. Shundan keyin ahamiyatli va umumiy, aytaylik, tur sifatidagi "ot" ta'rifida ifodalanadi¹⁰. Agar biz turning ahamiyatli xossalari ta'rifiga ega bo'lsak, u holda biz nisbatan yuqori darajadagi bilimga ega bo'lamiz, zotan endi uning ob'ekti o'zgarmas va ahamiyatlidir. Binobarin, Aristotel bilim olish hissiy tajribadan boshlanib, mohiyatni anglash bilan tugallanuvchi jarayon sifatida, ahamiyatli va umumiy hisoblangan narsalarni aniqlashga olib boruvchi mavhumlashtirish jarayoni sifatida ko'zdan kechiradi.

Garchi Aristotel aynan alohida narsalar, substansiyalar erkin mavjud bo'lishini (uning ontologik tezisi) ta'kidlagan bo'lsa-da, shu bilan birga u, biz izlashimiz kerak bo'lgan bilim bu ahamiyatli va umumiy xossalarni bilish demakdir (uning epistemologik tezisi), deb ham hisoblaydi.

Alohidani bilishdan umumiy va ahamiyatlini bilishga o'tish (o'ziga xos induksiya)dan keyin boshqa haqiqiy fikrlarni olish imkonini beruvchi mantiqan umumiy ahamiyatli xulosalar (deduksiylar) shaklidagi mohiyatni bilish ro'y beradi. Agar biz ot sut emizuvchi ekanligini keltirib chiqarishimiz mumkin. Aristotel bunday turdagi umumiy ahamiyatli va zarur xulosalar haqidagi ta'limot sifatida sillogistikani ishlab chiqqan alloma hisoblanadi.

Aristotelning olam tuzilishi to'g'risidagi ta'limotm uning falsafasida alohida o'rin tutadi. Bu sohala u geotsentrik nazariyani yoqlab chiqqan, lekin shunga qaramasdai, Yerning sharsimonligi va koinotning makonda cheklanganligini tan olgan.

¹⁰ Скирбекк, Г., Гилье, Н. Фалсафа тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002. –Б. 119.

Aristotel olamning moddiy birligini inkor etgan. Bu borada u atomistik faylasuflardan ancha orqada qolgan. U jismlarning tabiiy oʻrni toʻgʻrisidagi taʼlimotini yaratdi. Bu taʼlimotda ogʻir jismlarning doimo pastga intilishi, yengillarining esa yuqoriga koʻtarilishi, Yer olamning markazi (chunki u ogʻir), degan fikrni isbotlashga urindi. Olov yengil boʻlganligi uchun yuqoriga harakat qiladi. Uning tabiiy oʻrni yuqorida. Aristotelning fikricha, harakatning asosiy turlari ikki xil: 1) Aylanma harakat; 2) Toʻgʻri chiziqli harakat.

Bu ikki harakat turiga mos keluvchi ikki xil jism turlari mavjuddir. Toʻgʻri chiziqli harakatning tabiiy turi oʻz ichiga ikki xil harakatni oladi; 1) Yuqoridan pastga qarab harakat. 2) Pastdan yuqoriga intiluvchi harakat.

«Past», Aristotelning fikricha, markazni tashkil etadi. Toʻgʻri chiziqli harakatning birinchi turi aylana chizigʻidan markazga qarab harakat qilsa, ikkinchi turi esa markazdan aylananing chetiga qarab harakat qiladi. Ulardan tashqari yana ikki xil jismlar mavjud. Bular suv va havo boʻlib, toʻgʻri chiziq boʻylab harakat qiladi. Suv yer singari markazga intiladi. Havo olov singari aylananing chetiga intiladi.

Agar aylana chetini havodan yengilroq narsa egallamagan boʻlsa, havo ham aylananing chetiga harakat qiladi. Biroq tabiatdagi barcha unsurlar bu harakat bilan aniqlanmaydi. Unsurlarga toʻliq xarakteristika berish maqsadida Aristotel tabiatda mavjud asosiy fizik sifatlar toʻgʻrisida fikr yuritadi. Bular quyidagilar: sovuq, issiq, quruq, hoʻl.

Aristotel fikricha, bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi sifatlar — sovuq va issiq, quruq va hoʻl aslo birikmaydi. Bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi boʻlmagan sifatlarga oʻzaro birikishi mumkin. Toʻrt fizik sifatlardan har biri ikkitadan sifatga ega boʻlgan toʻrtta birikma sodir boʻladi:

1. Issiq sifat quruq sifat bilan birikadi.
2. Issiq sifat hoʻl sifat bilan birikadi.
3. Sovuq sifat quruq sifat bilan birikadi.
4. Sovuq sifat hoʻl sifat bilan birikadi.

Biroq faylasufning fikricha, bu ikki sifatdan biri har bir unsur uchun oʻziga xos bitta sifatga taalluqli boʻlishi mumkin. Olov uchun oʻziga xos sifat issiqlik, havo

uchun namlik, suv uchun sovuqlik xosdir. Unsurlarning o'ziga xos sifatleri aktiv va passiv turlarga bo'linadi. Aktiv sifatlariga sovuq va issiq sifatlar kiradi. Passiv sifatlariga quruq va ho'l sifatlar kiradi. Har bir elementda bitta aktiv va bitta passiv sifat mavjuddir. Masalan, olov unsurida aktiv sifat issiqlik bilan passiv sifat quruqlik mavjuddir. Lekin unsurlarning ushbu xarakteristikasi to'g'ri chiziqli harakatga taalluqlidir. To'g'ri chiziqli harakatdan tashqari aylanma harakat ham mavjud. Aylanma harakat ham tabiiydir. U yulduzlar doirasini harakatga keltiradi. Osmon abadiy va to'xtovsiz aylanma harakatda bo'ladi. Shunday qilib, Aristotel quyidagi xulosaga keladi. Barcha osmon jismlari to'rt unsurdan emas, efirdan tashkil topgan. Bu beshinchi unsur hisoblanadi. Yer sathining ustida ular olovdan tashkil topgaidek bo'lib ko'rinadi. Bunday ko'rinishning sababi osmon jismlarining nihoyatda tez aylanishlari tufayli qizib alangalanishidir. Efir, shuningdek, osmon jismlari harakat qiluvchi dunyoviy makonni to'ldiradi. Efir osmon va osmon doiralari singari o'zgarmas xususiyatga egadir. Efir doirasida barcha osmon jismlaridan mukammal hisoblanmish harakatsiz yulduzlar joylashgandir. Quyosh va Oy efirdan tashkil topgan. Lekin ular harakatsiz yulduzlarga nisbatan yer unsurlari ta'sirida bo'ladilar. Yerdagi jismlar tuproq, suv, havo va olov unsurlaridan tashkil topgan. To'rt unsur doimo o'zgarib turuvchi dunyo, ya'ni yerda mavjud, unda harakatning barcha turlari mavjud:

1) Paydo bo'lish va yemirilish. 2) Miqdoriy o'zgarishlar. 3) Makondagi harakat¹¹.

Aristotelning fikricha, makonda o'rin almashinuv harakat o'zgarishining asosiy turi bo'lib, qolgan barcha turlarning sharti hisobdanadi. Makonda o'rin almashinuv to'g'ri chiziqli va aylaima, uzlukli va uzluksiz, teng va tengsiz harakat bo'lishi mumkin. Aristotel teng to'xtovsiz aylanma harakatni afzal ko'radi. Chunki bunday harakat abadiy o'zgarmasdir. Shunday qilib, osmonda faqat bitta harakat turi — osmon jismlarining teng, to'xtovsiz aylanma harakatidan iboratdir.

Olamda bo'shliq yo'q ekan, u holda dunyoning markazi bilan oralig'ida, ya'ni yer bilan olov o'rtasida ularni birlashtirib turuvchi unsurlar joylanishi zarur. Bular havo bidan suvdur. Ular yer bilan olov o'rtasida «vositachilik» rolini o'taydilar¹².

¹¹ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 1. –М., 1975-1984. –С. 98.

Birinchi turtki — xudo harakatsiz yulduzlar doirasini tekis, to'xtovsiz aylanma harakatta keltiradi. Bu harakat bosqichma-bosqich yerga yetadi. Oy ustidagi unsurlar nomukammal bo'lgani uchun tekis, to'xtovsiz aylanma harakat ko'pincha nomukammal harakatlarga ajraladi. Aristotelning fikricha, zamon cheksiz bo'lganligi kabi harakat ham cheksizdir. Biroq bu abadiyat jismlarining tinch holati (inersiyasi) emas, balki birinchi turtkining doimiy teng kuchi ta'siri tufaylidir. Bu beshta unsur olamning moddiy asosi — dunyoviy jarayonning shartidir. Barcha jismlar biridan ikkinchisiga o'tuvchi unsurdan paydo bo'ladi. Unsur sof holda uchramaydi va hech bir yerda uchrashishi ham mumkin emas. Biron-bir unsur boshqaga ko'ra ustun tursa, o'sha qorishma yo olov, yoki havo, yoki suv, yoki tuproq deb ataladi. Bardi-yu, qorishmada biron-bir unsur ustun turmasa, unda qorishma jismlarni aks ettiradi. Aristotel olamning tuzilishi haqidagi ta'limotida ham tabiatda barcha narsalar maqsadga muvofiq qilib yaratilgan¹³, deb hisoblaydi.

Aristotelning fikricha, moddiy dunyo oo'ektivdir, tabiat moddiy substratga ega hamda doimo harakatda va o'zgarishda bo'lgan narsalar yig'indisidan tashkil topgan. Moddiy dunyo doimo mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladi hamda o'zini ifodalashda Platonning «g'oyalar dunyosi»ga muhtoj emasdir. Haqiqatni bilish, Aristotelning fikricha, birinchi navbatda tabiiy hodisalarni bilish, degan gapdir, ya'ni sezgilarimiz, tasavvurlarimiz real narsalardan kelib chiqadi.

Shuni e'tirof etish lozimki, faylasuf tashqi olamning ob'ektiv mavjudligini tan oladi. Lekin yakka narsa va tushunchalar bilan umumiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatni to'g'ri hal eta olmagan. U umumiylik va yakka (xususiylik), mohiyat va hodisa o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ko'ra olmagan. Ma'lumki, fan borliqning faqat individual xususiyatlarini o'rganish bilan cheklanmay, balki dunyoni bir butunlikda tekshirishi ham kerak.

Aristotel konkret hissiy mohiyat materiya va shakl birligidan iborat deydi. Shuningdek, borliqni tushunish va bilish shakl va mazmunning birligi demakdir.

¹² Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 1. –М., 1975-1984. –С. 101.

¹³ Ўша ерда. –Б. 102.

Shakl borliqqa nisbatan olganda predmetning mohiyatidan, bilishta nisbatan olganda esa predmet haqidagi tushunchadan iborat.

Aristotel materiyaning mohiyati uning o'zida deyish bilan birga shu mohiyatni bilish uchun sababiyat to'g'risidagi ta'limotni yaratadi. U olamdagi predmet va hodisalarning sabablarini to'rtga bo'ladi:

1. Moddiy sabab, ya'ni materiya.

2. Shakliy sabab shakl.

3. Yaratuvchi sabab.

4. Oxirgi sabab yoki maqsadga yo'naltirilgan sabab. Materiya har bir predmetning moddiy asosidir¹⁴.

Bundan tashqari, Aristotel har bir narsani yasash uchun ketgan materiyaning ham moddiy sabab ma'nosida tushunadi. Asosiy sabablardan yana biri shakl yoki shakliy sabab hisoblanadi. Har bir materiya (konkret jism, modda ma'nosida) muayyan bir shaklga ega. Shaklsiz yoki shakllanmagan narsa va hodisa bo'lishi mumkin emas. Shaklsiz yoki shakllanmagan narsa hamisha imkoniyatdangina iborat. Aristotelning fikricha, shakliy sabab, ya'ni shakl borliqqa bo'lgan munosabatida predmetning mohiyatidan iborat. Bu yerda Aristotel shakliy sababni moddiy sababdan ustun qo'yadi. Shaklsiz materiya hayotdan, quvvatdan va bir butunlikdan mahrumdir. Yaratuvchi sabab, Aristotelning nuktai nazaricha, harakat, barqarorlik, sokinlikning manbaidir. Masalan, ota va ona bola o'zgarishining sababchisidir.

Oxirgi sabab (maqsad, sabab), Aristotelning ta'limoticha, har bir harakat, o'zgarish yoki kishi faoliyatining oqibatidir. Aristotel oxirgi sababni, ya'ni maqsad-sababni noto'g'ri tushunadi. Uning fikricha, olamda sodir bo'ladigan hodisalar biron-bir maqsad yo'lida bo'ladi. Bu borada Aristotel tabiatdagi har bir hodisa o'zining taraqqiy etishida avvaldan ichki maqsadga (entelexiyaga)¹⁵ ega, degan fikrga asoslanadi. Aristotel insonga xos bo'lgan maqsadni tabiat hodisalariga ham yoymoqchi bo'ladi. Masalan, qurilish materiallari — moddiy

¹⁴ Асмус В.Ф. Античная философия. —М., 1976. —С. 127.

¹⁵ Ушаева. —Б. 231.

sabab, loyiha — shakliy sabab, qurilgan uy nimaga mo'ljallangani — maqsad-sabab. Shunday qilib, Aristotel maqsad-sababni tabiatga ham joriy etmoqchi bo'lib, tabiatdagi har bir hodisa o'z ichki maqsadlariga ega, degan xulosaga keladi. Bu yerda Aristotel tabiat bilan insonning ongli faoliyatini tenglashtirib qo'yadi.

Endi biz olamdagi yakka-yakka narsalarni emas, insonni, butun tabiat va olamni yaxlit ko'radigan bo'lsak, unda biz olamni tushuntirishda materiya va shaklning zaruriy ravishda mavjudligini tan olishimiz kerak. Bu masalaning hal etilishi uchun olam zamonda mavjud bo'lganmi va zamonda yo'q bo'ladimi, degan masalani ko'rib chiqishimiz lozim. Yuqorida aniklashimizcha, harakatning mumkinligi, birinchidan, materiyaning mavjud ekanligidan, ikkinchidan, shaklning muayyan bir predmetda shakllanganligidan kelib chiqadi. Shunga asoslangan holda Aristotel dunyo abadiy borliqdan iborat, deydi.

Qachonlardir dastlab harakat vujudga kelgan, deb taxmin qilaylik. Unda shunday savol tug'iladi: dastlab harakat vujudga kelgunga qadar materiya va shakl mavjud bo'lganmi yoki bo'lmaganmi? Bordi-yu, materiya va shakl dastlabki harakatdan oldin mavjud bo'lmagan, desak, unda materiya va shakl ilgari paydo bo'lgan, deyishga to'g'ri keladi. Bilamizki, biron-bir narsa harakatsiz vujudga kelmaydi. Unday bo'lsa, harakat boshlangunga qadar mavjud bo'lgan, degan noto'g'ri fikrga kelishimiz mumkin.

Aristotelning fikricha, bu qarama-qarshilikni hal etishda faqat bir usul mavjud. Olamda sodir bo'layotgan harakat o'zining boshlanishiga ega bo'lmashligidan tashqari, uning oxiri ham yo'q, ya'ni harakat olam singari abadiydir. Olamning abadiy mavjudligi, o'z navbatida olam o'zining abadiy sababi va abadiy harakatlantiruvchi kuchiga ega, degan taxminga olib boradi. Bu abadiy harakatlantiruvchi — harakatga keltiruvchi kuchdir. Harakatga keltiruvchi kuch, ya'ni xudo bo'lmash ekan, har qanday harakatning bo'lishi ham mumkin emas. Aristotelning fikricha, barqarorlik yoki turg'unlik faqat birinchi harakatlantiruvchiga munosibdir.

Demak, Aristotelning «birinchi harakatlantiruvchi» va harakat manbai to'g'risidagi ta'limoti cheklanganligiga qaramasdan, harakatning turli shakllari va

ularning borliq bilan aloqadorligini ko'rsatishi fanga qo'shgan benihoya ulkan hissadir.

Moddiy dunyonint eng oliy mahsuli insondir. Unda shakl va mazmun mujassamlashgan. Inson tanasi materiya bo'lsa, ruhi shakldir. Aristotelning ruh haqidagi ta'limoti ham uning ontologik qarashlarida alohida o'rin tutadi. Aristotel o'zining «Ruh haqida»gi asarida ruhning faoliyatini aniqlab, uni real borliqni tashkil etuvchi fizik jismning alohida «birinchi entelexiyasi» (ichki maqsadi)dir¹⁶, deydi. Uning ruh haqidagi ta'limoti boshqa ta'limotlaridan o'zining izchilligi bilan ajralib turadi, desak xato qilmaymiz. «Metafizika» asarida Aristotel ruh haqida gapirib ruh materiyadan tashqarida mavjud emas¹⁷, deb yozgan. «Ruh bu tana emas, u tanaga taalluqli narsa bo'lib, aniq bir tanada mavjuddir»¹⁸. Aristotelning bu g'oyasini keyingi davr faylasuf olimlari yuqori baholab, u individual ruhning o'lmasligini inkor etgan, degandilar. Aristotelga ko'ra hayot ruhning faoliyati bilan belgilanadi. «Ruh tabiiy organik tanada amalga oshgan, nihoyasiga yetgan birlamchi narsadir»¹⁹, ya'ni ruh tirik mavjudotning boshi va oxiri-dir. Ruhning parchalanishi, o'z navbatida tananing yemirilishiga olib boradi. Ruhning oliy jihati — aql. U ruhning eng pastki funksiyalaridan tashkil topib, taraqqiyot davomida ruhning eng yuqori funksiyasi — aqlga aylanadi. Eng oliy aql tana singari parchalanmaydi, uning mavjudligi esa inson hayoti bilan cheklanmagan. Aqldan tashqari jonning qolgan barcha qismlari tana singari parchalanuvchi, keyinchalik sxolastik ta'limotda Aristotelning aql va jonning abadiyligi to'g'risilagi ta'limotini talqin qilish borasida munozaralar yuzaga keladi.

Aristotelning fikricha, idrok qilish faqat idrok qilinayotgan jismnint xususiyatlari va uni idrok qilayottan a'zo o'rtasida farq bo'lganida yuzaga kelishi mumkin. Idrok qilinayotgan jism idrok qilishimizga qarab harakat qilayottandek tuyuladi. O'z tabiatiga ko'ra, hissiy idrok tana emas, balki sezgi a'zolariga borib yetadigan harakatdir.

¹⁶ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 2. –М., 1975-1984. –С. 231.

¹⁷ Ўша ерда. –Б. 232.

¹⁸ Ўша ерда. –Б. 233.

¹⁹ Ўша ерда. –Б. 233.

Idrok etishda ko‘rish alohida o‘rin tutadi. Ko‘z orqali qabul qilinadigan yorug‘lik harakat emas. Yorug‘lik o‘ziga xos alohida borliq. Aristotel fikricha, xotira ilgari mavjud bo‘lgan tasavvurlarni qayta tiklashdir. Eslashning shartiga ko‘ra, bir jismni eslash paytida ikkinchi boshqa jism to‘g‘risila tasavvur paydo bo‘ladi. Xotirlashning xarakteri yoki turi tartibiy, o‘xshashlik, qarama-qarshilik va bir-biri bilan bog‘lanishli bo‘lishi mumkin.

Aristotelning jon haqidagi ta‘limogi ham mavjud bo‘lib, u ob‘ektiv idealizm ruhida talqin etiladi. Bu ta‘limot keyinchalik Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilgan. Aristotel dialektikasi bu oddiy suhbat qurish san‘ati emas, balki borliq va tafakkurning umumiy asoslarini bilishdir. Bilish, birinchi navbatda, falsafiy tadqiqotlarni ilmiy uslubda aniqlashdir.

Uning dialektikasi reallikning umumiy jihatlari bilan ish yuritadi. Bunda u sezgilarimiz va tafakkurimiz bergan ma‘lumotlar asosida falsafiy va ilmiy bilimlarni qurishni haqiqiy uslub, deb tushunadi. Aristotel o‘zining «Topika» asarini dialektikaga bag‘ishladi. Uning fikricha, harakat, moddalar, predmetlar bir-birisiz yashay olmaydi. Harakat abadiy xarakterga ega bo‘lib, o‘zgarishga moyildir. U materiya harakatini quyidagicha ta‘riflaydi: oddiy o‘rin almashinuv harakati, miqdor o‘zgarishidan sifat o‘zgarishi, imkoniyatning voqelikka aylanish harakatidir. Harakatning to‘rtinchi turi, uning fikricha, harakatning oliy shaklidir²⁰. Aristotelning harakat haqidagi fikrlari antik dialektikani ancha rivojlantirdi. Aristotel shuningdek, dialektik kategoriyalarni ham ishlab chiqli. Uning sababiyat va tasodifiyat, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik kabi dialektik kategoriyalari fikrimizning dalili bo‘la oladi. Bu kategoriyalarning bir-biriga o‘tishini harakat va tinchlik paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lishi, sog‘lomlik va bemorlik, hayot va o‘lim, miqdor va sifat o‘zgarishlarning dialektik birligini ko‘rsata bera oladi. Aristotel materiya va harakat birligini asoslashga harakat qiladi-yu, lekin bu borada izchil bo‘la olmadi.

Mutafakkirning fikricha, bilimlar ikki qismga bo‘linadi. Haqiqatga yaqin ehtimol va haqiqiy (apodeyktik) bilim. Dialektika, deydi faylasuf, o‘zida drama-

²⁰ Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 2. –М., 1975-1984. –С. 331.

qarshi bo'lgan ehtimollikdan xulosa chiqaradi. Demak, dialektika qarama-qarshi ta'riflar doirasida ish yuritadi va bevosita qarama-qarshiliklar bilan shug'ullanadi. Dialektika — bu ilmiy tadqiqot jarayonidir. Aristotel dialektikasiga ko'ra, haqiqat tadqiqot predmeti emas, balki maqsaddir. Dialektika asosida insonning haqiqatga erishishidagi fikrlash jarayoni yotadi²¹.

Aristotel garchand, ehtimol bilimlar doirasi bilan dialektikani cheklab qo'ygan bo'lsada, biroq ana shu cheklanish orqali dialektikaning keyingi rivoji yo'lida katta qadam qo'ydi, hamma ehtimol bilimlar bilan haqiqiy bilimlar o'rtasida aniq chegara qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Har qanday ilmiy mulohazada, faylasufning fikricha, umumiy holatlar bo'lib, tadqiqotni ular asosida olib borish kerak. Aristotel o'z dialektikasida universal dialektik uslubga ahamiyat bergan emas. Biroq u birinchi marotaba dialektikaga ilmiy va falsafiy tadqiqot uslubi deb ongli ravishda qaradi. Xulosalar fanga taalluqli muhokamadan keltirib chiqariladi. Masalan, fizika fanida axloq, huquq to'g'risida xulosa chiqarish mumkin emas. Aksincha, dialektika Aristotel fikricha, barcha fanlarga bir xil tegishli bo'lgan umumiy holatlar bilan ish yuritadi.

Aristotelning dialektik tadqiqot uslubi ayni bir vaqtda sof, mavhum bo'lishi mumkin emas, u barcha fanlar uchun mazmunli va foydalidir. Aristotel dialektikasi shunday uslubni o'rgatishi kerakki, u orqali sillogizmni ko'ra olsak, shu orqali haqiqatga yaqin, ehtimolli bilimlar asosida aniq va haqiqiy bilimlarga ega bo'lamiz. Dialektika borliq va tafakkurning haqiqiy asosini aniqlash bilan bog'liq. Dialektikaning vazifasi faqat ishontirish emas, balki har bir konkret holda ishontirish usullarini topishga qaratilgan. Dialektika haqiqatni qidiribgina qolmasdan, balki haqiqiy ilmiy dalil-isbotni topishni maqsad qilib qo'yishi lozim.

Aristotel falsafa va dialektikani xususiy fanlardan ajratmaydi. Dialektikaning vazifasi ayrim fanlar miqyosida ularning umumiy ta'rifini qidirishdir. Masalan, tibbiyotning mohiyati, deydi Aristotel, bu Suqrot uchun sog'liqdir, degani bo'lmay, balki salomatlik umuman insonlarga kerak, degan

²¹ Ўша ерда. —Б. 332.

fikrdan iboratdir²². Umumiylikning bu holati, uning fikricha, dialektika doirasiga kiradi. Hech bir san'at dialektika singari xususiy hollardagi umumiy hollarni tekshirmaydi.

Notiqlik, Aristotel fikricha, dialektikaning ba'zi bir qismini tashkil etadi. Notiqlikdan qiroat fani sifatida ijobiy va salbiy maqsadda foydalanish mumkin. Notiq notiqlik mahorati bilan haqiqatni topishga harakat qilsa, u haqiqiy dialektikaga yaqinlashishi mumkin. Lekin notiq o'z notiqligini haqiqatga qarshi qaratgan bo'lsa, u sofistika yaqinlashadi. Sofistik dialektika haqiqatni o'rgatish uchun emas, balki g'alabaga erishish uchun safsatabozlik san'atidan foydalanishdir. Notiqlik haqiqat yo'lida qo'llansa, dialektikaning qismiga aylanadi. Aristotelning mantiq'i bilan dialektikasi o'rtasida qan-ay munosabat bor ekan — degan savolga Aristotel falsafasida mantiq va dialektikaning ajralmasligi aniq ko'rsatilgan. Bu haqda uning mantiq asoslari guvohlik beradi.

Shunday qilib, bo'linga xulosa qilamiz. Aristotelcha metafizika oliy mavjudot haqidagi ta'limot – teologiya bilan xotimalanadi. U jonlantirilgan Xudo hisoblanmaydi. Aristotel oliy mavjudotni osoyishta holatda bo'lgan (hech qanday potentsialliksiz, sof aktual) va shu tufayli boshqa barcha mavjudotlarning yakuniy maqsadi (yunoncha *telos*) bo'lib hisoblangan “harakatsiz harakatlantiruvchi” sifatida tushunadi. Harakatsiz harakatlantiruvchi barcha boshqa narsalarni harakatga keltiradi (har birini unga xos bo'lgan usul bilan va ma'lum vaqtda). Bu ierarxik tushuniluvchi dunyoning pastidan sof materiya (potentsiallik) o'rin olgan bo'lib, u “hayrioddiy” mazmunga ega hisoblanadi, uni biz tasavvur qila olmaymiz, zotan u aktuallikka (aktual xususiyatlarga) ega bo'lmaydi.

Aristotelning ierarxik dunyosida har bir narsa o'ziga xos bo'lgan imkoniyatlar (potentsialliklar)ni eng yaxshi tarzda amalga oshirishga intiladi. Har bir narsaning maqsadi shundan iborat bo'ladi (*telos*). Barcha narsalar “oliyga” intiladi. Bu ma'noda narsaga xos bo'lgan potentsiallikning aktuallashishi teleologik bo'lib hisoblanadi. Bu intilish va bu o'zgarish orqali amalga oshirish har bir narsaga xos bo'ladi. Ammo dunyoda har bir tur o'z o'rniga egadir. Ushbu dunyoni

²² Аристотель. Сочинения в 4-х томах. Т. 2. –М., 1975-1984. –С. 431.

tushunishning ta'siri juda katta bo'ldi va u, boshqa ko'plar qatori, ayrim xristian faylasuflari tomonidan ham tan olindi.

II bob. Aristotelning borliq haqidagi ta'limotining sharqqa tarqalishi

2.1 Ibn Rushd va Abu Rayhon Beruniyning ontologik dunyoqarashida Arastuning o'rni. Ibn Rushd - Averroes

Arastuning borliq haqidagi qarashlarining sharqqa yoyilishida ibn Rushdning tarjimalari va sharhlari kata ahamiyat kasb etadi. Abul Valid Muhammad ibn Ahmad ibn Rushd (Yevropada Averroes nomi bilan mashhur 1126 yilda Qurtabada (Kordova) tug'ildi)ning asarlari musulmon ilohiyotchilari davrasida dushmanlik bilan kutib olindi. Uning falsafani Arastu ruhida talqin qilishi ruhoniylar tomonidan islom aqidalariga qarshi qaratilgan chiqish sifatida baholanayotgan edi. Musulmon ilohiyotchilari Ibn Rushdning dunyoning abadiyligi va uning qonuniy ravishda rivojlanishda ekanligi haqidagi ta'limotiga, ayniqsa, uning voqelikni aql yordamida bilib olish mumkin, degan qarashlariga qarshi chiqdilar.

Muruvvatsizlikka uchragan Ibn Rushd, hatto o'zining shogirdlaridan ham mahrum qilinadi. Ruhoniylar uning atrofida chidab bo'lmas muhit yaratadilar. Uning zamondoshlarining yozishlaricha, bir kuni Ibn Rushd va uning o'g'li Abu Allahni Qurtabadagi masjiddan haydab chiqaradilar. U o'z uyida qamoq holatida yashaydi. Faqat vafotidan sal oldingina Ibn Rushd yana xalifa tomonidan Marokashga chaqiriladi va o'sha yerda 1198 yilning 10 dekabrda olamdan ko'z yumadi.

Ibn Rushd eng sermahsul mutafakkirlardan biri edi. Uning mehnatsevarligini o'zi aytgan gaplardan ham bilsa bo'ladi. Uning o'zining tan olishicha, o'z hayotida faqat ikki kungina ishlamagan: biri otasi vafot etgan kun va ikkinchisi o'zining tuyi bo'lgan kun.

Ibn Rushd ellikka yaqin yirik asarlar yozgan. Ulardan eng mashhurlari quyidagilar: "Raddiyani rad etish", "Mantiqqa oid asarlar", "Osmoniy jismlarning harakati haqida mulohazalar", "Zamon muammosi", "Birinchi harakatga keltiruvchi kuch haqida", "Abadiy va vaqtinchalik mavjudlik haqida mulohazalar", "Jon haqida fan muammolari", "Aql haqida mulohazalar", "Falsafa masalalari",

“Din bilan falsafaning muvofiqligi haqida” va boshqalar.

Ibn Rushd asarlarining bir qator arabcha asl matnlari bizgacha yetib kelmagan. Ular faqat qadimgi yahudiy va lotin tiliga qilingan tarjimalari orqaligina ma'lumdir.

Ibn Rushd “sharhlovchi” sifatida ham mashhur – uni “Ilohiy komediya”ning muallifi Dante shunday deb atagan. U Arastu ta'limotini ilk davrdagi sof holatiga qaytardi. Ma'lumki, Arastu qarashlarini Iskandariya sharhchilari sezilarli darajada buzib, unga Aflotuncha unsurlarni qo'shgan edilar. Ibn Rushdning ishonchi komil ediki, to'g'ri tushunilgan Arastu ta'limoti, inson erishishi mumkin bo'lgan oliy bilimga qarama-qarshi turmaydi. Uning fikricha, Arastu siymosida insoniy aql o'zining yuqori ifodasini topganki, shuning uchun uni ilohiy faylasuf deb atash ma'qul bo'ladi. Uning zamondoshlari fikricha, “Arastu tabiatni tushuntirdi, “Averroes esa - Arastuni”²³.

Ibn Rushd Arastu va uning izdoshlari bo'lgan al-Kindiy, Forobiy va Ibn Sinolar falsafasini qabul qilish bilan birga, faqat falsafadagi ushbu yo'nalishni ko'rsatibgina qolmasdan, balki jahon falsafiy tafakkuri rivojiga o'zining qaytarilmas hissasini ham qo'shdi.

Arastuning borliq haqidagi qarashlarinig sharqqa tarqalishida Zakariyo Ar-Roziyning ham hissasi bo'lib, u ko'proq Aflotun izdoshi hisoblangan. Ar-Roziy borliq va dunyoning tuzilishi haqida modda bilan shaklning ajralmas ekanligini qayd etadi: “Moddaning shakli o'z holatiga ko'ra, javharning sifatidir. Modomiki, javhar o'zining tashkil topishi va namoyon bo'lishi uchun orazga (sifat) ehtiyoj sezmas ekan, shu tufayli orazga javharlilik ustidan afzallik xos xususiyat emas. Modda va shaklning holati shundaydir. Shuning uchun ham oraz va shakl o'rtasida hech qanday farq yo'qdir”²⁴.

Roziy Arastuning bo'shliq haqidagi fikrini rad etib, Aflotunning bo'shliq mavjud ekanligi haqidagi aqidasi qo'shilgan.

Zakariyo Roziy harakat, bo'shliqnigina emas, balki jismlar tarkibini eng kichik

²³ Ренан Э. Собрание сочинений. –Киев. 1960. Т. 8. –С.70.

²⁴ Ўша жойда. –Б.32.

zarrachalardan (atomlardan) tuzilganligi haqidagi Demokrit fikriga qo'shilgan.

Jumladan, Beruniy borliq dunyo yaratilganmi yoki yo'qmi, degan savollarga dunyo yaratilgan, deb javob beradi. Uning qarashlarida namoyon bo'lgan ikki qarama-qarshi g'oyalar, ya'ni bir tomondan, dunyoning yaratilganligini inkor eta olmaslik, ikkinchi tomondan esa, tabiatni mustaqil deb bilish, Beruniyning tabiatshunos sifatida dunyoni va tabiatni tushunishda ma'lum darajada deistik (xudo dunyoni yaratib qo'yib, boshqa uning ishlariga aralashmaydi) yo'nalishga moyilligini ko'rsatadi. Xudo dunyoni butunligicha yaratadi va unga azaldan ma'lum qonunlarni beradi. Ana shu qonunlar tufayli tabiiy kuch, ya'ni tabiat harakat qiladi. Lekin keyinchalik Beruniy hatto deizm qobig'ining torligini sezadi va moddiy dunyoning abadiy mavjudligini tan olishni zarurligini his etadi. Bu fikrning isbotini u Qur'ondan ham topadi. O'sha davrdagi tabiatshunoslik fanida erishilgan yutuqlar uni Arastuning tabiat falsafasiga tanqidiy yondoshishga, shuningdek, uning zaif tomonlarini farqiga borishga olib kelgan. Bu uning Ibn Sino bilan yozishmasida o'z ifodasini topgan. Ularning bu yozishmalari asosan Arastuning "Fazo haqida" va "Fizika" asarlari bo'yicha olib borilgan.

Bu yozishmada Ibn Sino Arastuning tabiat falsafasini himoya qilgan. Beruniy esa Ibn Sinoga e'tiroz bildirgan. Ularning bahsi asosan Arastu tabiat falsafasining muhim masalalaridan biri – jismlarning cheksiz bo'linishi bo'yicha bo'lgan. Bu borada Beruniyning Ibn Sinoga qarshi chiqqanligini ko'rgan ayrim mualliflar uni Demokrit atomizmining tarafdori degan xulosaga kelganlar. Lekin Beruniy bu masalaga birmuncha jiddiyroq qaragan. U bo'linish muammosini hal etishda shunday yo'lni topishga harakat qiladiki, ikki ta'limot – atomistik va cheksiz bo'linishning o'ziga xos qarama-qarshiliklarini va cheklanishlarini bartaraf etishga intiladi.

Beruniy atomistik nazariyasini Demokrit atomistik nazariyasidan farqi shundaki, Abu Rayhon bo'shliqni inkor etsa, Demokrit bo'shliq – dunyoning zaruriy ajralmas qismi, deb hisoblaydi.

Beruniy Arastuni tanqid qilishda dastavval tajribaga murojaat etadi. Uning bu yo'li Arastuning kuzatuvchilik usuliga qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib,

Beruniy jismlarning cheksiz bo‘linuvchanligini tan olish va bo‘linmas zarrachalar to‘g‘risidagi atomistik ta’limotning cheklanganligini ko‘rsatishga intiladiyu, biroq bu muammoni to‘liq hal qila olmaydi. Shunga qaramay, masalaning bunday qo‘yilishining o‘zi ham mutafakkirning katta yutug‘i bo‘lgan.

2.2 Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlariga Arastuning ta'siri

Yangi aflatuncha tamoyillar Kindiy, Roziy, Forobiy va Ibn Sino falsafiy qarashlarida namoyon bo'lgan. Kindiy tafakkurida ko'proq Arastu unsurlari ustunlik qilsa, Abu Bakr Zakariyo Roziyda Aflatun qarashlari kuchliroq edi.

Biz bilamizki, falsafadagi asosiy masala “nega borliq mavjud?” degan savoldir. Mazkur savolga beriladigan javobga qarab, falsafa tarixida turli davrlarda bir-biridan farqlanuvchi falsafiy qarashlar vujudga kelgan. Arastu bu savolga shunday javob berganki, uning javobi Aflatun javobining o'zginasi emas. Ammo, uning javobiga munosabati va aloqasi bor. Forobiyning bu masalaga bergan javobi, yunon falsafasining bu ikki buyuk namoyondasi javobidan tubdan farq qiladi.

Forobiyning fikricha, borliq xudodir va faqat ugina mohiyatlarga vujud bag'ishlaydi. Forobiy falsafa tarixida birinchi bo'lib mavjudotlarni ikki qismga: aqliy vujudga va mohiyatga, mohiyatlarni esa to'qqiz javhar va oraz (aksidensiya) tushunchasiga taqsim qiladi. Vaholanki, Arastuning o'nta kategoriyasi, vujud ma'quloti bo'lib, mohiyat tushunchasi emas. Binobarin, bunday taqsimlash tarzi ahamiyatsiz va shunchaki bir ish emas. Uni hikmat asoslariga kiritilgan juz'iy o'zgartirishgina deb emas, balki islom falsafasidagi asosiy masalalarga qo'yilgan yechimlar rejasi, deb qabul qilmoq kerak. Shunga asosan endi haqiqat va sababiyat tushunchalari mutlaqo boshqacha ma'no kasb etadi. Forobiy aytganidek, haq xudodir va haqiqatning boshqa ma'nolari uning asarlarida xuddi shu ma'noda qo'llaniladi. Zero, barcha mavjudotlar ilmi ilohiyda mavjud bo'lib, nimaiki ilohiy qazoda bor bo'lgan bo'lsa, qadar darajasiga tushib qolgan, deydi u²⁵. Xuddi shuningdek, haqni azaliy, deganda, alloma aynan mana shu ma'noga asosiy e'tiborni qaratadi. Bunga qo'shimcha sifatida yana shuni aytish mumkinki, sababiyat ham uning asarlarida boshqacha ko'rinish va talqinga ega bo'lib, ko'proq faollik ma'nosini kasb etadi. Bu ma'nolarning hech birini yunon faylasuflari asarlaridan topa olmaymiz. Agar diqqat bilan kuzatsak, shu narsa ma'lum

²⁵ Ризо Доварий Ардаконий. Форобий – муассис фалсафайе исломи. –Б.123-124 (форс тилида).

bo‘ladiki, islom falsafasida yunon falsafasiga xos bo‘lmagan biror yangi masala o‘rtaga qo‘yilsa, bu faqat diniy mulohazadan kelib chiqibgina shunday qilingan, deyish mutlaqo noto‘g‘ridir. Chunki, aksariyat hollarda bunday masalalar yangi usulning zaruriyati tufayligina yangicha tarzda qo‘yilgan, xolos. Shuning uchun ham Forobiyni ma‘lum ma’noda islom falsafasining muassisi, ya’ni asoschisi, deb bilmoq kerak.

Forobiy “Al-jam’e bayne royil hakimin” “Ikki hakim qarashlari o‘rtasidagi jamlanma”²⁶ kitobining muqaddimasida ushbu mulohazalarini qayd etadi: “Ko‘rdimki, zamona ahli olamning ibtidosi va uning paydo bo‘lishi, shuningdek, yaratilganlik va azaliylik masalalarida bir-birlari bilan nizo qiladilar, xohladimki, ushbu nizolarni bartaraf qilsam”²⁷.

Forobiy bu nizolarni qanday qilib bartaraf etdi?-degan savol tug‘iladi. Haqiqat shundan iboratki, u Aflotun qarashlarini ham, Arastu fikrlarini ham isbot qilib o‘tirmadi, balki ularning har ikkisi qarashlarini o‘z falsafasi asosida tafsir qildi. Uning bu tafsiri faqat ilohiy bilim bilangina chegaralanmaydi, balki falsafaning barcha tarkibiy qismlarini ham qamrab oladi.

Forobiy fikricha, nazariy ma‘rifat “Birinchii ibtido”ni tushunish asosi bo‘lib, unga binoan barcha mavjudotlar, Undan va uning uchun vujudga kelgandirlar”. Forobiy falsafa va hikmatni madaniy jamiyatni boshqarish uchun shart deb bildi va jiddu-jahd bilan moddiy olamdan chiqib, yuqori darajadagi olamga qadam qo‘yish, deb tavsifladi.

Forobiy fikricha, nazariy hikmat, ya’ni xudovandni tanish ilmi uzoqdagi sabab bo‘lsa, ilmning o‘z zoti, ya’ni borliq dunyodagi voqealarning sabab va oqibat aloqalarini bilish yaqindagi sabablardandir. Uning yozishicha, “hikmat afzal mavjudotlar haqidagi afzal ilmdir”²⁸.

Forobiy aqidasi ko‘ra, moddadan uzoqlashish Plotin uslubidagi ruhning badandan uzoqlashishi ma‘nosida emas, balki jismoniy zaruriyat va moddiyotdan aqliy amallar sari izlanish natijasida borliqning eng oliy mavzusi bo‘lgan birinchi

²⁶ Форобий, Абу Наср. Икки хаким қарашлари ўртасидаги жамланма. –Байрут. 1960 (араб тилида)

²⁷ Ризо Доварий Ардаконий. Форобий – ислом фалсафаси муассиси. –Б.133 (форс тилида).

²⁸ Забихулло Сафо. Ислом маданиятида ақлий илмлар тарихи. –Техрон, 1923, 1-жилд, –Б.188. (форс тилида)

sababga aqlan yaqinlashishdir. Moddadan poklanish tushunchasi Forobiy falsafasida shunday ma'noga egadirki, unda inson o'z zihnini shunday sayqallashtirishi kerakki, bundan keyin uni hech qanday moddiy narsa o'ziga jalb qila olmasligi lozim va uning barcha zarracha va qismlari yuqoridagi olam tomon to'planib, doiraviy shakldagi harakat bilan bir-biridan ajraluvchi mavjudotlarni bosib o'tib, qudratli vujud nuqtasi bo'lgan birinchi sabab tomon yuzlanishi zarur.

Forobiy "aql bilquvva" va faol aqlni moddadan holi ravishda idrok etmagan. U moddaning foniy bo'lishi bilan yo'qoladi, -deb hisoblaydi. Faqat foydalanilgan aqlgina tushunchalarni faol aqlning fayzi tufayli bevosita va moddadan beniyoz holda qo'lga kiritib, uni idrok eta oladi. Bu shuning uchun ham yuz beradiki, uning taalluqli joyi moddadan holi bo'lgan mavjudlik bo'lganligidan faol aql bilan birlashgandan so'ng faqat shu aqlgina yashab qolib, qiyomat kunining lazzat yoki alam, mukofot yoki uqubatlarining mazasini totib ko'radi. Bunday nuqtai nazarni ta'kidlash, shuni isbotlaydiki, Forobiy Aflotunga qarshi o'laroq, hech bir nafsoniy qusurlarni, jumladan, shahvoniy, g'azabli fe'l va xatti-harakatlarni, hatto hasad, berahmlik, baxillik va karomatli ishqni ham yaxshi ham, yomon ham hisoblamaydi. Uning fikricha, bu aytilganlarni baxt-saodat yoki badbaxtlikdagi o'rni va maqomiga qarab, xayr (yaxshilik) yoki sharr (yomonlik) holatiga aylantirish mumkin²⁹.

Vujud, mavjudot tarkibi, ilmlar tasnifi Ibn Sinoning borliq, mavjudot haqidagi ontologik ta'limotini Forobiy ta'limotining davomi, rivoji deb ta'riflash mumkin.

Ibn Sino vujudni ikkiga: zaruriy vujud-vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud – vujudi mumkinga ajratadi. Zaruriy vujud hamma mavjud narsalarning boshlang'ichi – birinchi sababi – ya'ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq narsalar vujudi mumkindir³⁰.

Birinchi yagona vujuddan kelib chiquvchi vujudlar, mavjud borliqning turli tuman shakllari, boshlang'ich yagona vujudning ifodalanishidir. Asta-sekin kelib chiquvchi borliq shakllari, ya'ni so'nggi vujudlar sabab-oqibat munosabati

²⁹ Абу Наср Форобий. Фазилят, бахт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи. 2002, –Б.39.

³⁰ Хайруллаев М.М. Абу Али ибн Синонинг илмий-фалсафий ва ижтимоий қарашлари. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –Б.63.

shaklida o‘zaro bog‘liqdir. Birinchi vujudning xislatlari undan kelib chiquvchi barcha vujudlarga o‘tib boradi. Vujud haqidagi fikrlar, mavjudot shakllarining o‘zaro bog‘lanishi, emanatsiya Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Donishnoma” kabi asarlarining metafizika bo‘limida har tomonlama bayon etilgan.

Ibn Sino vujudi mumkinni javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya)ga ajratadi. Javhar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u sodda va murakkabdir. Sodda javhar boshlang‘ich unsurlar – olov, havo, suv, yerdan iborat, shuningdek, modda va shaklning birligidan tashkil topib tabiat, o‘simlik, hayvonot, inson shaklida mavjuddir³¹deydi.

Ibn Sinoning borliq haqidagi qarashlarida biz asosan Beruniy bilan yozishmalarida Arastu izdoshi ekanligini bilib olamiz.

³¹ Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. –Т.:Фан, 1976. – С.351.

X U L O S A

Aristotel (miloddan avval 384-322 yillar) tarixga qomusshunos olim sifatida kirdi. Uning merosi eramizdan oldingi IV asrgacha yunon fani to'plagan haqiqiy bilimlar majmuasi edi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, uning tomonidan yozilgan asarlarning soni mingtaga yaqinlashadi. O'z ustози Aflotundan farqli o'laroq, Aristotel fikricha, moddiy olam birlamchi bo'lib, g'oyalar dunyosi ikkilamchidir. Bir hodisaning ikki tomoni sifatida shakl va mazmunni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tabiat haqidagi ta'limot uning risolalarida avvalo harakat haqidagi ta'limot sifatida namoyon bo'ladiki, bu Aristotel tizimining eng qiziq va kuchli tomonidir. U **dialektika**ning yirik vakili hisoblanadi. *Dialektika* uning uchun ehtimoliy va haqiqatga o'xshash bilimlardan haqiqiy va ishonchli bilimlar olish usuli edi.

Faylasufning «Organon» deb umumiy nom olgan mantiqiy asarlari haqiqat va tafakkur qonunlari haqidagi ta'limotdir. O'rta asrlarda «Organon» eng mashhur va o'qiladigan asar bo'lib, o'rta asrlardagi barcha sxolastika (borliqni tekshirish va o'rganishga emas, balki din aqidalariga suyangan idealistik falsafa) uning asosiga qurilgan edi. Aristotelning hayvonlar haqidagi risolalari mashhur bo'lib, ularda qadimgi davrda birinchi marta yirik organizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi tadqiq etilgan, ularning ta'rif va tasniflari berilgan edi. Shuningdek, olim o'zini tarixchi, pedagog, notiqlik ilmining nazariyotchisi, axloqiy va siyosiy ta'limotlar asoschisi sifatida ham namoyon qilgan edi.

«Metafizika» - «Birinchi asar»ida Aristotel to'rt xil sabab haqida so'zlaydi. Har bir narsa undan hosil bo'ladi.

Aristotel o'zining ushbu ta'limotidan chekinib, shaklni faol hisoblaydi, xatto shakl borliqning ma'nosi ham deydi. Aristotel material yolg'iz imkoniyat, u shakllanibgina ro'yobga chiqadi deb moddani passiv hisoblaydi. Har bir tabiiy xodisada Aristotel ichki azaliy maqsad, entelexiyani ko'rdi.

Aristotel tabiatni harakat va taraqqiyotda, imkoniyatni esa voqelikka aylanish jarayoni deb tasvirlaydi. Uningcha, butun olam o'z harakatini – «birinchi

harakatlantiruvchidan» oladi. Bu fikr keyingi oʻrta asr faylasuflari uchun manba boʻlib xizmat qildi.

Aristotel olamni bilishda avvalo inson sezgisining roli toʻgʻrisida gapirib, hamma seziladigan va sezgi uygʻotadigan narsa tashqarida mavjud, deb hukm chiqaradi. Zotan narsalardagi, xodisalardagi umumiylikni bilish, sezishning ishi emas, balki aql, tafakkur, nazariy bilishning, fanning vazifasidir.

Aristotel fandagi muhim xizmatlaridan biri uning harakatning turlari va taraqqiyot shakllari toʻgʻrisidagi nuqtai nazaridir.

Aristotel taʼlimotining ilgʻor tomonlarini tashviqot qilishda, rivoj berishda Arab, Eron, xususan, Oʻrta Osiyo va Hindiston faylasuflarining xizmati kattadir. Al-Kindiy, al-Forobiy, al-Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Ulugʻbek, Navoiy, Jomiy, Mirza Bedil kabi fan va adabiyotning mashhur arboblari asarlarini oʻqib, tadqiq etib bunga toʻla ishonch hosil qilamiz.

Arastuning ontologik qarashlari oʻrta asr sharq faylasuflari dunyoqarashi shakllanilishida muhim manba boʻlib xizmat qildi deb aytsak, oʻylaymanki xato boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Rasmiy hujjatlar, materiallar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. -40 b.

1.2. Karimov I. A. Inson xotirasi – boqiy, qadr-qimmati – ulug' // Xalq so'zi. -2012. -10 may.

1.3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. -440 b.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammiti mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi // “Xalq so'zi”. 2010. 22 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” nomli ma'ruzasi // “Xalq so'zi”. 2010. 12 noyabr.

1.6. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // “Xalq so'zi”. 2010. 7 dekabr.

1.7. Karimov I. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.

1.8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -176 b.

1.9. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam iro daliligiga ishonaman // “Fidokor”, 2000, - 8 iyun

2.Monografiyalar, risolalar, to‘plamlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, davriy nashrlar

2.1. Ckirkbekk, G., Gile, N. Falsafa tarixi. –T.: “Sharq”, 2002. -720 b.

2.2. Xrestomatiya po filosofii: Uchebnoe posobie. –M., 1998.

2.3. Xrestomatiya po filosofii. –M.1987.

2.4. Shopavalov V.A. Ot klassiki do sovremennosti. –M. 1999.

2.5. G‘arb falsafasi (Q.Nazarov va boshqalar. Tuzuvchi va mas’ul muharrir). –Toshkent: Sharq, 2004.

2.6. Muhammadjon Qodirov “Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta sharqning falsafiy tafakkuri” T.: ToshDShI nashriyoti. 2009.

2.7. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat – globallashuvning g‘oyaviy asosi. – Toshkent: TAFAKKUR, 2009. – 448 b.

2.8. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. -371 b.

2.9. Aristotel. Sochineniya v 4-x tomax. T. 1. –M., 1975-1984.

2.10. Asmus V.F. Antichnaya filososfiya. –M., 1976.

2.11. Renan E. Sobranie sochineniy. –Kiev. 1960

3.Internet saytlari va materiallari

3.1. Aristotel // <http://www.2unil.ch/slav/ling/textes/VOLOShINOV27/I-1.html>

3.2. Aristotel // [www//kontrolynaya.avorut.ru/load/11](http://www.kontrolynaya.avorut.ru/load/11)

3.3. Aristotel // [www//slovari.yandex.ru/dict/phil_dict](http://www.slovari.yandex.ru/dict/phil_dict)

- 3.4. Aristotel // [www//revolution.allbest.ru/philosophy/00006941.html](http://www.revolution.allbest.ru/philosophy/00006941.html)
- 3.5. Arastu // <http://tashkent.uz/article/466/>
- 3.6. Aristotel // www.psychanalyse.ru/biblioall_16.html
- 3.7. Aristotel//http://society.polbu.ru/kirilenko_philosophy//ch12_i.html
- 3.8. Aristotel // <http://www.sbiblio.com/forum/>